



MIGRATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

Toxirov Yoqubjon Yaxyojon

o'g'li - “Mahalla yettiligi”,

yoshlar siyosati va ma'naviyat

masalalari departamenti bosh

mutaxassisi,

e-mail: Tohirov.2505@gmail.com

ORCID: 0009-0008-3253-3393

XXI asrda migratsiya jarayonlari jahon iqtisodiyoti va xalqaro mehnat bozorining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Globallashuv, demografik o'zgarishlar, iqtisodiy tengsizlik, texnologik taraqqiyot, iqlim o'zgarishi hamda geosiyosiy omillar xalqaro migratsiya hajmining izchil ortishiga sabab bo'lmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda dunyoda xalqaro migrantlar soni 304 million nafardan oshgan bo'lib, bu dunyo aholisining qariyb 3,7 foizini tashkil etadi. Xalqaro migratsiya mehnat bozori, iqtisodiy o'sish, innovatsion rivojlanish, inson kapitalini shakllantirish hamda demografik muvozanatni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi¹.

Migratsiya faqat aholining hududiy ko'chishi emas, balki murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo'lib, uning samarali boshqarilishi davlatning iqtisodiy barqarorligi, milliy xavfsizligi, mehnat bozori muvozanati hamda inson kapitalini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda migratsiyani boshqarish oddiy ma'muriy nazoratdan strategik boshqaruv modeliga o'tmoqda. Zamonaviy migratsiya

¹ United Nations Department of Economic and Social Affairs (UN DESA). International Migrant Stock 2024. New York: United Nations.



siyosati iqtisodiy manfaatlar, inson huquqlari, milliy xavfsizlik va raqamli texnologiyalar uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida ham tashqi mehnat migratsiyasining iqtisodiyotdagi o'rni ortib borayotganligi sababli migratsiyani boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Ushbu jarayonni boshqarishda xalqaro tajribaga asoslangan innovatsion va institutsional mexanizmlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Migratsiya jarayonlarini boshqarishning nazariy asoslari. Migratsiyani ilmiy jihatdan o'rganish XIX asr oxirida boshlangan. Ingliz olimi Ernest Ravenstein migratsiyaning birinchi ilmiy qonunlarini ishlab chiqib, migratsiya oqimlari asosan iqtisodiy omillar ta'sirida shakllanishini asoslab bergan. U migratsiya masofasi, iqtisodiy markazlarning jozibadorligi va urbanizatsiya jarayonlari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatgan².

Keyinchalik Everett Lee tomonidan ishlab chiqilgan "Push–Pull" nazariyasi migratsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni to'rtta guruhga ajratadi: yashash hududidagi salbiy omillar, qabul qiluvchi hududdagi ijobiy omillar, oraliq to'siqlar hamda shaxsiy omillar³.

Mazkur yondashuv bugungi kunda ham migratsiya siyosatini ishlab chiqishda nazariy asos sifatida keng qo'llaniladi.

Neoklassik iqtisodiy nazariya migratsiyani mehnat resurslarining iqtisodiy jihatdan samaraliroq hududlarga harakatlanishi sifatida talqin qiladi. Ushbu nazariyaga ko'ra, ish haqi va bandlik darajasidagi tafovutlar xalqaro migratsiyaning asosiy determinantlari hisoblanadi⁴.


Klassik nazariyalar



² Ravenstein, E.G. The laws of migration. Journal of the Statistical Society of London, 48(2), 1885, 167-235.

³ Lee E.S. A theory of migration. Demography, 3(1), 1966, 47-57.

⁴ Todaro M.P. A model of labor migration and urban unemployment in less developed countries. American Economic Review, 59(1), 1969, 138-148.



1-rasm. Migratsiya jarayonlarini boshqarishning nazariy evolyutsiyasi⁵

1-rasm migratsiya jarayonlarini boshqarish nazariyalarining tarixiy evolyutsiyasini aks ettiradi. Unda klassik nazariyalardan boshlab zamonaviy institutsional va innovatsion yondashuvlarga bo'lgan rivojlanish bosqichlari tizimli ravishda ifodalangan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, migratsiya


⁵ Muallif tomonidan Lee, 1966, Massey va boshq., 1993, Castles va boshq., 2020, de Haas 2021, IOM 2024 asosida tuzilgan.



bugungi kunda faqat iqtisodiy hodisa sifatida emas, balki inson kapitalini rivojlantirish, mehnat bozori muvozanatini ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi strategik boshqaruv obyekti sifatida qaralmoqda. Bu esa migratsiya siyosatini kompleks va ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida shakllantirish zarurligini tasdiqlaydi.

Yangi iqtisodiy migratsiya nazariyasiga ko'ra esa migratsiya alohida shaxs qarori emas, balki uy xo'jaliklarining daromadlarni diversifikatsiya qilish va iqtisodiy tavakkalchiliklarni kamaytirishga qaratilgan strategiyasidir⁶. Ushbu yondashuv rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ayniqsa muhim bo'lib, mehnat migratsiyasi orqali oilalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashni tushuntiradi.


Douglas Massey tomonidan ishlab chiqilgan kumulyativ sababiyat va migratsiya tarmoqlari nazariyasiga ko'ra, avval shakllangan migrantlar tarmoqlari yangi migratsiya oqimlarini rag'batlantiradi. Natijada migratsiya jarayoni vaqt o'tishi bilan o'zini o'zi qo'llab-quvvatlaydigan tizimga aylanadi⁷. Stephen Castles va Mark Miller migratsiyani globallashuvning ajralmas qismi sifatida baholab, zamonaviy migratsiya ko'p yo'nalishli, murakkab va institutsional xarakterga ega ekanligini asoslaydilar⁸.



⁶ Stark O., Bloom D.E. The new economics of labor migration. American Economic Review, 1985, 75(2), 173-178.

⁷ Massey D.S., Arango J., Hug G., Kouaouci A., Pellegrino A., Taylor J.E. Theories of international migration: A review and appraisal. Population and Development Review, 1993, 19(3), 431-466.

⁸ Castles S., de Haas H., Miller M. J. The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World (6th ed.), 2020, London: Red Globe Press.



2-rasm. Migratsiya jarayonlarini boshqarishning zamonaviy institutsional modeli⁹

2-rasm migratsiyani boshqarishning zamonaviy institutsional modelini ifodalaydi hamda davlat boshqaruvi, raqamli texnologiyalar va xalqaro hamkorlikning o‘zaro integratsiyasini ko‘rsatadi. Model migratsiya jarayonlarini samarali boshqarishda sun‘iy intellekt, Big Data, biometrik identifikatsiya va elektron platformalarning ahamiyati ortib borayotganini namoyon etadi. Natijada migrantlarning kompetensiyalarini baholash, mehnat bozoriga moslashtirish va reintegratsiya jarayonlarini takomillashtirish

⁹ Muallif tomonidan IOM (2024), ILO (2022), de Haas (2021) hamda tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan.



imkoniyati kengayadi. Mazkur yondashuv O'zbekiston sharoitida migratsiyani strategik boshqarish tizimini rivojlantirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda Hein de Haas tomonidan ishlab chiqilgan "Aspirations–Capabilities Framework" migratsiya nazariyasida yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur yondashuvga ko'ra migratsiya faqat iqtisodiy sabablar bilan emas, balki insonning migratsiya qilish istagi va uni amalga oshirish imkoniyatlarining o'zaro uyg'unligi bilan belgilanadi¹⁰.

Ushbu konsepsiya hozirgi kunda IOM va OECD tomonidan ham ilmiy asos sifatida qo'llanilmoqda.

O'zbekistonda migratsiya jarayonlarini ilmiy tadqiq etishda akademik Qalandar Abduraxmonovning ishlari alohida o'rin tutadi. Uning fikricha, mehnat migratsiyasi mehnat bozoridagi talab va taklif nomutanosibligini yumshatuvchi muhim iqtisodiy mexanizm bo'lib, u aholi bandligini ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish hamda inson kapitalidan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mehnat migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solish mehnat bozori siyosatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lishi lozim¹¹.

Professor Qalandar Abduraxmonov va Nodira Zokirova O'zbekiston tashqi migratsiyasini tahlil qilar ekan, mamlakat Markaziy Osiyoda mehnat migratsiyasining eng yirik ishtirokchilaridan biri ekanligini ta'kidlaydilar. Mualliflarning fikricha, zamonaviy migratsiya siyosati faqat migrantlarni xorijga yuborish bilan cheklanmasdan, ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish, huquqiy himoyasini ta'minlash hamda qaytgan migrantlarni milliy iqtisodiyotga reintegratsiya qilishni ham qamrab olishi zarur¹².

¹⁰ de Haas H. A theory of migration: The aspirations–capabilities framework. *Comparative Migration Studies*, 9, 2021, Article 8. <https://doi.org/10.1186/s40878-020-00210-4>

¹¹ Abdurakhmanov K.Kh., Mukhitdinov E.M., Shakarov Z.G., Nabiev O.A., Amanov O.A. *Labor Migration and Its Impact on Employment of Population*. International Research Journal, 2019.

¹² Abdurakhmanov K., Zokirova N. *Main Trends and Directions of External Migration of the Republic of Uzbekistan. Economics and Innovative Technologies*, 11(3), 2022. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss3/i7.



Mirzoxid Raximov va Farhod Yoqubov migratsiyani O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida baholaydilar. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, tashqi mehnat migratsiyasi nafaqat pul o'tkazmalari hajmini oshiradi, balki mehnat resurslarining hududiy taqsimlanishi, kasbiy malaka almashinuvi hamda xalqaro mehnat bozoriga integratsiyalashuvni kuchaytiradi. Shu sababli migratsiyani boshqarishda davlat organlari o'rtasida institutsional hamkorlikni rivojlantirish va raqamli boshqaruv mexanizmlarini keng joriy etish zarur¹³.

O'zbek olimlari migratsiyani boshqarishda raqamlashtirishning ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, yagona elektron migratsiya platformasi, mehnat bozorini prognozlash tizimi, migrantlarning kasbiy kompetensiyalarini baholash hamda davlat idoralari o'rtasida axborot almashuvini avtomatlashtirish boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu yondashuv xalqaro migratsiyani strategik boshqarish tamoyillariga mos keladi.

Migratsiyani boshqarishda institutsional yondashuv

Institutsional yondashuv migratsiyani davlat organlari, xalqaro tashkilotlar, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik orqali boshqarishni nazarda tutadi. Mazkur modelda migratsiya siyosati faqat chegaralarni nazorat qilish bilan cheklanmaydi. U mehnat bozorini tartibga solish, ta'lim tizimi, kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiy himoya va xalqaro hamkorlikni ham qamrab oladi.

Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (IOM) migratsiyani boshqarishning to'rtta asosiy yo'nalishini ajratadi: qonuniy migratsiyani rivojlantirish, noqonuniy migratsiyaning oldini olish, migrantlarning huquqlarini himoya qilish va migratsiyaning iqtisodiy samaradorligini oshirish¹⁴. Xalqaro Mehnat

¹³ Rakhimov M., Yokubov F. *Uzbekistan External Migration: Key Trends and Directions*. Eurasian Research Journal, 4(1), 2022, 27-47. <https://doi.org/10.53277/2519-2442-2022.1-02>

¹⁴ International Organization for Migration (IOM). World Migration Report 2024. Geneva: International Organization for Migration.



Tashkiloti (ILO) esa migratsiya siyosatida "munosib mehnat" tamoyilini asosiy mezon sifatida belgilaydi. Ushbu tamoyil migrantlarning mehnat huquqlari, xavfsiz mehnat sharoitlari hamda ijtimoiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan¹⁵.

Migratsiyani boshqarishda innovatsion mexanizmlar. So'nggi yillarda migratsiya boshqaruvida raqamli texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), biometrik identifikatsiya, elektron vizalar va blokcheyn texnologiyalari migratsiya tizimlarining samaradorligini sezilarli oshirmoqda.

Raqamli platformalar orqali migrantlarning malakasi, ish tajribasi va hujjatlari elektron tarzda baholanmoqda. Biometrik texnologiyalar esa chegaralarni nazorat qilish samaradorligini oshirib, noqonuniy migratsiyani kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Kanada va Avstraliya ball tizimiga asoslangan elektron baholash mexanizmlaridan foydalanmoqda. Germaniya xorijiy diplomlarni avtomatik tan olish tizimini kengaytirgan. Singapur esa COMPASS platformasi orqali xorijiy mutaxassislarni kompleks baholash tizimini joriy qilgan.

O'zbekiston sharoitida migratsiyani boshqarishning nazariy modeli quyidagi elementlarni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiq:

- yagona raqamli migratsiya platformasini yaratish;
- mehnat bozori ehtiyojlarini sun'iy intellekt asosida prognozlash;
- migrantlarning kompetensiyalarini ball tizimida baholash;
- davlat organlari o'rtasida yagona axborot almashuv tizimini shakllantirish;
- xorijiy ish beruvchilar bilan elektron integratsiyani rivojlantirish;
- migrantlarning qaytishidan keyingi reintegratsiya dasturlarini takomillashtirish.

¹⁵ International Labour Organization (ILO). International Labour Migration: A Rights-Based Approach. Geneva: International Labour Office, 2022.



Bunday yondashuv migratsiyani nazorat qilishdan ko'ra uni strategik boshqarish konsepsiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa.

Migratsiya jarayonlarini boshqarishning zamonaviy nazariyalari iqtisodiy, institutsional va innovatsion yondashuvlarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida rivojlanmoqda. Klassik nazariyalar migratsiyaning sabablarini tushuntirsa, zamonaviy konsepsiyalar migratsiyani inson kapitalini rivojlantirish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish vositasi sifatida talqin qiladi. O'zbekiston uchun migratsiyani boshqarish tizimini takomillashtirishda xalqaro tajribani milliy sharoitlarga moslashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda davlat boshqaruvining institutsional samaradorligini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. United Nations Department of Economic and Social Affairs (UN DESA). International Migrant Stock 2024. New York: United Nations.
2. Ravenstein, E.G. The laws of migration. Journal of the Statistical Society of London, 48(2), 1885, 167-235.
3. Lee E.S. A theory of migration. Demography, 3(1), 1966, 47-57.
4. Todaro M.P. A model of labor migration and urban unemployment in less developed countries. American Economic Review, 59(1), 1969, 138-148.
5. Stark O., Bloom D.E. The new economics of labor migration. American Economic Review, 1985, 75(2), 173-178.
6. Massey D.S., Arango J., Hug G., Kouaouci A., Pellegrino A., Taylor J.E. Theories of international migration: A review and appraisal. Population and Development Review, 1993, 19(3), 431-466.



7. Castles S., de Haas H., Miller M. J. *The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World* (6th ed.), 2020, London: Red Globe Press.
8. de Haas H. A theory of migration: The aspirations–capabilities framework. *Comparative Migration Studies*, 9, 2021, Article 8. <https://doi.org/10.1186/s40878-020-00210-4>
9. Abdurakhmanov K.Kh., Mukhitdinov E.M., Shakarov Z.G., Nabiev O.A., Amanov O.A. *Labor Migration and Its Impact on Employment of Population*. *International Research Journal*, 2019.
10. Abdurakhmanov K., Zokirova N. *Main Trends and Directions of External Migration of the Republic of Uzbekistan. Economics and Innovative Technologies*, 11(3), 2022. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss3/i7.
11. Rakhimov M., Yokubov F. *Uzbekistan External Migration: Key Trends and Directions*. *Eurasian Research Journal*, 4(1), 2022, 27-47. <https://doi.org/10.53277/2519-2442-2022.1-02>.
12. International Organization for Migration (IOM). *World Migration Report 2024*. Geneva: International Organization for Migration.
13. International Labour Organization (ILO). *International Labour Migration: A Rights-Based Approach*. Geneva: International Labour Office, 2022.